



## **URFON OTAJON IJODIDA TEMURIYLAR DAVRI MADANIYATI TASVIRI**

**Mansurova Yulduz Faxriddinovna,**  
*Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TUAU magistranti*

**DOI:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.15207401>

*Annotatsiya:* Maqolada asli kasbi injener-muhandis bo‘lgan Urfon Otajon ijodi xususida so‘z yuritilgan. Uning “Dilkusho bog‘lar” kitobidan o‘rin olgan hikoyalar tahlilga tortilgan. Hikoya qahramonlari ruhiyatini ochishda adibning badiiy mahorati yoritilgan.

*Kalit so‘zlar:* Xuroson, Hirot, qo‘lyozma, kotib, tarixiy haqiqat, badiiy talqin .

O‘zbek adabiyoti tarixida munosib iz qoldirgan Urfon Otajon 1939-yil tug‘ilgan. Badiiy adabiyot va mumtoz namunalarga muhabbat Urfon Otajonga otasi Sayfiy shoirdan meros bo‘lib qolgan. O‘zbek adabiyotida Sayfiy taxallusi bilan ijod qilgan Abduvahob domla o‘z davrining yetuk shoiri sanalgan. Sayfiy xonadonidagi adabiy yig‘inlar, mushoira va mubohasalar yosh Urfon qalbida chuqur iz qoldirgan. Asli kasbi injener-muhandis bo‘lgan Urfon Otajon butun umrini badiiy adabiyotga bag‘ishladi. Qadimiy manbalarni o‘qib o‘rganishga chog‘ladi. Urfon Otajon 2007-yil “Dilkusho bog‘lar” kitobini nashr ettirgan. Kitobga so‘z boshi yozgan Aziz Qayumov: ”Bog‘larda daraxtlar ko‘p bo‘ladi. Ushbu to‘plamda ham lirik va daramatik lavhalar ancha . Ularning har biri yetuk, mevaga kirgan daraxtlarga o‘xshab ketadi. Yozuvchi Urfon Otajon mohir bog‘bon singari bog‘idagi har bir daraxtni ustalik bilan parvarish qilib o‘stirgani sezilib turibdi.

Ushbu kitob xalqimiz o‘tmishining ayrim lavhalaridan tashkil topgan. Bu lavhalar ulug‘ ustoz Alisher Navoiy, uning shogirdi Kamoliddin Behzod, saltanat egasi sulton Husayn Boyqaro, uning doirasiga mansub zotlarga oid. Hikoyalar g‘oyat qiziqarli, badiiy jihatdan puxta ishlangan. Ularning adabiy matosi hikoyalarda mayin eshitilayotgan nay, g‘ijjak, tanbur sadolaridek yoqimli; suvratlar tasviri kabi ravshan va jozibal; she‘riy parchalar kabi sehrli va maftunkor.

Agar ushbu hikoyalar to‘plam tarzida nashr etilsa, keng o‘quvchilar o‘rtasida XV asr ikkinchi yarmidagi Hirot madaniy va adabiy muhitining qanchalar yuksak darajada ekani, unga mansub ijodkorlarning ijodi qanchalar mazmundor va serqirra bo‘lgani to‘g‘risidagi tushunchalarni kengaytirish va boyitishga xizmat qilajagiga shak-shubha yo‘q. Shuning uchun men ushbu kitobni tezroq o‘quvchilar ommasiga yetkazilmog‘ini istar edim.” [2:3] deb bejizga ta’kidlamagan.

**“O‘ZBEK FILOLOGIYASI:  
MUAMMO VA YECHIMLAR”  
mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani**



“Dilkusho bog‘lar” kitobida quyidagi hikoyalar o‘rin olgan: “Bog‘i Dilkusho ohusi”, “Avliyo”, “Humoyun qabul”, “Ishq bog‘i holati”, “Rustami doston surati”, “Uchinchi bahor”, “Tafarruj”, “Noyob sovg‘a”, “Amirzodalar bahsi”, “Fitna”, “Bobur va Behzod”, “Nodiri asr”, “Darvesh”, “Shoh Muzaffar”, “Shogird-shahzoda”, “Nay navosi”, “Visol”, “Xadichabegim”, “Musavvirlar”, “Gulrux”, “Sulton Husayn Bayqaro majlisi”, “Shoh G‘arib Mirzo va Xadichabegim”, “Sultonali Mashhadiy”, “Darvesh Irqband”, “Ustod va shogird”, “Sulton Husayn Mirzo”, “Hazrat Abdurahmon Jomiy suhbat”, “Gulruh”, “Mavlono Behzod va shogird yigit”, “Nizomiddin Mir Alisher Navoiy majlisi”, “Sulton Husayn mirzo”, “Qabih reja”, “Shoh Muzaffar”, “Aldanish”, “Xadichabegim va kanizak Mushtariy”, “Kuzatuv”, “Sulton Husayn Mirzo va malika Xadichabegim”, “Sulton Husayn mirzo majlisi”.

Bu hikoyalardan “Bog‘i Dilkusho ohusi”, “Avliyo”, “Humoyun qabul” hikoyalari Amir Temurga bag‘ishlangan bo‘lib, hikoyalarda Temur bobomizning insoniy xislatlari, adolatliligi, tabiatga muhabbat kabi tuyg‘ulari aks ettirilgan. Ayniqsa, “Humoyun qabul” hikoyasini o‘qir ekanmiz, Amir Temurni adabiyot ixlosmandi ekanligiga amin bo‘lamiz. Sheroziy bilan suhbat jaroyonida Amir Temurning kuchli tafakkur sohibi ekanligiga, she‘riyatning nozik nuqtalarini yaxshi tushunishiga iqror bo‘lamiz.

Amir Temurga Hofiz Sheroziyning yangi g‘azalidagi quyidagi bayt manzur bo‘ladi:

Bog‘i bihisht-u soyai tubiv-u kasri hur,

Ba hoki ko‘yi do‘st barobar namekunam.

“Ishq bog‘i holati”, “Tafarruj” hikoyalarida Alisher Navoiy va Husayn Boyqaro do‘stligi, bir-biriga muhabbati aks etgan, bir-biridan uzoqda do‘stlar sog‘inchi, ularning go‘zal g‘azallaridan ham bahramand bo‘ladi kishi.

“Noyob sovg‘a” hikoyasida Sulton Husayn mirzoning Bog‘i Jahonorodagi saroyidagi nafis bir oliy majlis tasvir etilgan. Oliy majlisda xamsaxonlik bo‘lar edi. Bu majlisda Amir Temur oliy hazratlari bilan bog‘liq hikoyat o‘qilmoqda edi va bundan Alisher Navoiydan minnatdor bo‘ladi. Kamoliddin Behzod sahibqiron siymolari naqsh etilmish bir suratni Sulton Husayniyga va majlis ahliga taqdim etadi. Hikoya juda mahorat bilan yoritilganki, nogahon ul majlisda o‘zingiz qatnashganday his qilasz. “Sulton Husayn Bayqaro majlisi” hamda “Nizomiddin mir Alisher Navoiy majlisi” hikoyalarida judayam rohatbaxsh muhit buyuk zotlarning g‘azallaridan bahramand bo‘lib, hikoya ichiga singib ketganimizni bilmay qolamiz.

Navoiydan:

**“O‘ZBEK FILOLOGIYASI:  
MUAMMO VA YECHIMLAR”  
mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani**



Emdi kim devona-yu rasvoyi olam bo‘lmisham,  
Vasl chun mumkin yo‘q o‘lturgay bu savdo koshki.

Ey Navoiy, bevafo dir yor, bas, ne foyda,  
Necha kim desang agar, yoxud, magar, yo koshki.

Husayniydan:

Istabon kelsa yana ko‘ksun shikofin topmagay,  
Vahki, bir marham qo‘yub ul chok ko‘ksun butkar-u.

Aylasang miskin Husayniy jonini andin xalos,  
Virdi bu bo‘lg‘ay duoda sen daqg‘I doim yor-u!

“Urfon Otajon-adabiyotshunos” kitobiga yozgan so‘z boshida Omonulla Madayev: ”Urfon Otajonning “Bog‘i Dilkusho ohusi”, “Humoyun Qabul”, “Fitna” kabi bir qator hikoyalarini o‘qigan kitobxon dastlabki sahifadanoq, “Nahot...nahot...nahot...” deya hikoyani tugatganini bilmay qoladi. Amir Temurni, Alisher Navoiyni, Zahiriddin Boburni shundoq hayotda ko‘radi, ularning ma’naviy go‘zal inson bo‘lganliklaridan hayratga tushadi” [1;5]- degan fikrlarini bildirgan.

Muhammadjon Imomnazarov “Fidoyi inson yoxud Urfon Otajonning kashfiyoti” maqolasida quyidagi fikrlarni keltiradi: “Amir Temur va Navoiy davrlariga oid kichik-kichik ehtirosli lavhalarini nazardan o‘tkazar ekansiz, bu odam vaqt mashinasiga tushib o‘sha davrga borib kelganmi, deb o‘ylaysiz. ”Bog‘i Dilkusho ohusi”, “Avliyo”, “Humoyun qabul”, “Ishq bog‘i holati”, “Uchinchi bahor”, “Tafarruj” kabi sururli hikoyalarni o‘qigan kitobxon yana shunday badiiy lavhalarni qidirish orzudan ajrala olmaydi. Ammo topa olarmikan? Ayniqsa, ”Tafarruj”dagi do‘stini sog‘ingan hukmdor - “darvish-shoh” shoir tabiat toj egasining botiniy kechinmalari tasviri nazarimda besh asr ilgari yashagan inson ruhiyatidagi bunday alvonrang evrilishlarni bu darajada ishonarli tiklay olish uchun vaqt mashinasi ham mutlaqo asqotishi qiyin, buning uchun faqat Sulton Husaynning o‘ziga aylanib olish qudratiga ega bo‘lish kerak.”[1:52]

“Dilkusho bog‘lar” kitobiga so‘ngso‘z yozgan Abduqodir Hayitmetov: “Yozuvchining ishi – o‘z iqtidoridan kelib chiqib, bilganini yozish. Unga bahoni esa kitobxon beradi. Urfon Otajon hikoyalarini men uzoq izlab topilgan sirli va sehrli voqealar bayoni, noyob badiiy ixtirolar deb atagan bo‘lur edim. O‘z kasbiga ko‘ra muhandis, dil amriga ko‘ra esa adabiyotchi, xususan, o‘tmish adabiyot muxlisi bo‘lgan Urfon Otajon ayniqsa, Alisher Navoiy ijodiyoti, uning davrida yuzaga kelgan

## “O‘ZBEK FILOLOGIYASI: MUAMMO VA YECHIMLAR” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani



fan, madaniyatning ishqibozidir. Bu ishqibozlik uni ijod sohasida temuriylar zamoniga, adabiyot, san'at gullagan, siyosiy kurashlar ham avjiga chiqqan XV asrga yetaklagan. U shu davr hayotining boshqalar ko'zi ilg'amagan voqea va hodisalarni qalamga olishni niyat qilgan. Buning uchun u bor ijodiy xayolotini ishga solgan. Ajabki, uning bu sa'y-harakati bekor ketmabdi. Urfon Otajon "Amirzodalar bahsi" hikoyasida Sulton Husayn Boyqaro hukmronligi davrida hayot har tomonlama jonlangani, kishilar nimagadir qiziqqani, uyda o'tirgan ayollar ham siyosatdan va madaniy turmushdan chetda turmagani, ma'naviyaning ya'ni ilm-fanning, adabiyot va san'atning martabasi yuksak bo'lgani haqida so'z ochgan. Chindan ham Zahiriddin Muhammad Bobur "Boburnoma"da yozganidek: "Sulton Husayn Mirzoning zamoni ajab zamone edi, axli fazl va benazir eldin Xuroson, bataxis Hiri shahri mamnun edi. Har kishiningkim bir ishga mashg'ullig'i bor edi, himmati va g'arazi ul edikim, ul ishni kamolg'a yetkurg'ay". Masalan, bu davrda Pahlavon Muhammad degan bir ulug' zot yashagan bo'lib, u podshoh saroyidagi pahlavonlarning boshlig'i, yelkasi hech yerga tegmagan kurashchi, ayni vaqtda shoir va musiqachi, qo'shiqchi va raqqos, shoir va olim, tabib va oshpaz ham edi. U Alisher Navoiy bilan yaxshi do'st bo'lib, ulug' shoir uni sevar, u bilan faxrlanar edi.

Muallif hikoya qilishicha, Hirot aslzoda boylaridan Sadriddinning Ziynatniso ismli go'zal va zukko bir qizi bo'ladi. Unga bir vaqtning o'zida temuriylarda xizmatda bo'lgan amir Shahobiddin va Munir Barlosning Arslonbek va Munavvarbek ismli o'g'illaridan sovchilar keladi. Ularning gapini qaytarish, javob qilish ham qiyin muammo edi. Shunda Ziynatnisoning onasi Gulrux oyim o'ylab-o'ylab eri Sadriddinga turkiy xalqlar an'anasi bo'yicha, katta bir jo'mardlik bahsi uyushtirilishi haqida mulohaza bildiradi. Shunday g'oya malika Xadichabegimda ham paydo bo'ladi. Sulton Husayn Boyqaro ijozati bilan bahs uyushtiriladi ham. Unda ikki oshiq yigit avval oltin va kumushdan yasalgan va ziynatlangan to'ti qushlar shaklida qancha oltin ishlatilgani masalasini hamda bir necha she'riy muammolarni mahorat bilan yechadilar. So'ng ular daraxtga osib qo'yilgan olmani yoy o'qi bilan urib tushirish, ta'sirli qilib she'r o'qish bo'yicha teppa-teng mahorat ko'rsatadilar. Bunda yig'ilganlar kuchli hayajonga keladi. Qizning ikki yigitdan birini tanlab olishi esa oxirida qura tashlash yo'li bilan hal etiladi. Bu anvoi musobaqani o'sha buyuk zot - Pahlavon Muhammad boshqaradi. Yigitlarning musobaqa shartlarini bajarish jarayoni adib tomonidan g'oyat jonli va hayajonli qilib, katta zavq bilan tasvirlab berilgan. Arslonbek shahzodalardan Muzaffar Mirzoga yaqin bo'lib, Xadichabegim bahs davomida unga qayishadi. Chunki Muzaffar Mirzo uning o'g'li-ku! Ziynatnisoning



Munavvarbekka nasib etganligi Xadichabegimga ancha-muncha yoqmaganiga qaramay, u bunday yakun bilan kelishishga majbur bo‘ladi.

Bu hikoyani men boy o‘tmishimizdan go‘zal bir badiiy lavha deb hisoblayman. Unda Navoiy kabi ulug‘lar nomining tilga olinishi, she‘rlaridan o‘qilishi, Husayn Boyqaroning yig‘inda faol qatnashib, sovrinlar berishi – bular hammasi xayoliydek tuyulsa ham, haqiqatga yaqin gaplardir. Masalan, Zahiriddin Muhammad Bobur “Boburnoma”da Husayn Boyqaroning qo‘chqor saklash, xo‘roz urishtirish, kaptarbozlik tomoshalaridan hech qolmaganini bizga xabar qilishi bejiz emas.

Urfon Otajon o‘zining “Fitna” nomli hikoyasida o‘sha davrdagi siyosiy kurashlarda ayollar ham qatnashgani, tomonlar o‘z foydasi yo‘lida qabih ishlarni qilishdan ham tortinmagani, hatto xufyalarni ishga solgani to‘g‘risida so‘zlaydi. Bizga Zayniddin Vosifiyning “Badoe ul-vaqoe” asaridan ma‘lumki, Husayn Boyqaroga raqiblari hammomda suiqasd qilganlar. Astrobodda esa Navoiyga zahar berishga urinishlar bo‘lgan. Bular hammasi hayotda bo‘lgan hodisalardir.

Temuriylardan Bobur Mirzoning raqibi Muhammad Shayboniyxon o‘z siyosiy mavqeini mustahkamlash, dushmaniga Xuroson tarafdin madad kelib qolmasligini ta‘minlash uchun uzoq Andalusiyada tug‘ilib, taqdir taqozosi bilan Movarounnahrda kelib qolgan, eri jangda Bobur askarlari tomonidan o‘ldirilgan, alamzada Fitna ismli ayoldan foydalanadi. Fitna go‘zal, ishbilarmon, oqila, jasur juvon bo‘lib, Shayboniy topshirig‘i bo‘yicha Hirotda Husayn Boyqaroning xaramiga kirib boradi. Ma‘lum darajada Husayn Boyqaroning suyuklisi - Xadichabegimning ishonchini qozonishga ham erishadi. Uning Xadichabegimga bergan maslahatlari ta‘sirida Husayn Boyqaro Bobur Mirzoga xayrixohlik bilan jo‘nayotgan elchilar karvonini Shayboniyxon tomonga yo‘llaydi. Muallif bu voqeani badiiy jihatdan g‘oyat ishonchli qilib tasvirlab bera olgan. Urfon Otajon oldingi hikoyasida Ziynatniso, Munavvarbek, Arslonbek, Husayn Boyqaro obrazlarini qanday yorqin va jonli tasvirlab bergan bo‘lsa, bu hikoyasida “Fitna” laqabli Nozik oyim ham mukammal ochib berilgan.

Yozuvchi uning barcha qobiliyatlari qatorida o‘zining o‘ylagan niyatiga yetish yo‘lida har qanday dahshatli azob-uqubatlarga chidashi, andak bo‘lsa ham o‘z maqsadidan chekinmaslik xususiyatlarini hayotiy lavhalar orqali gavdalandira olgan.

Hikoyaning bosh g‘oyasi – temuriylar xonadonidagi ichki ziddiyatlarni ochish, temuriylarning Alisher Navoiydek donishmand shoir va davlat arbobining siyosat osmonida Yorug‘ yulduzdek porlab ko‘tarilayotgan Zahiriddin Muhammad Bobur haqidagi fikrini vaqtida qo‘llab-quvvatlamaganlarini, oqibatda o‘zlari ham tarixning beayov hukmiga mustahiq bo‘lganlarini dard-alam bilan ko‘rsatishdir. Urfon Otajon

**“O‘ZBEK FILOLOGIYASI:  
MUAMMO VA YECHIMLAR”  
mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani**



hikoyalarining tili boy, ko‘rkam. U voqea va narsalarni, tarixiy kishilarning obrazlarini aniq tasavvur etishga intiladi. Hikoyada Shayboniyxonning siyosat sohasida mug‘ombirligi, Boburning ishchanligi, tinib-tinchimasligi, hayotning barcha sohalari bilan faol qiziqishi to‘g‘ri ko‘rsatilgan. Muallif Temuriy xonimlarning pardozi-andozlarini tasvirlar ekan, buni ham umumiy gaplar bilan emas, balki ularning bo‘yi barobar ko‘zgulari, atir-upa, husndon, gulob, fil suyagidan ishlangan taroq va boshqa buyumlar orqali ifodalaydiki, bu hikoyani yanada o‘qishli qiladi, kitobxonning uzoq tarix haqidagi bilimlariga bilim qo‘shadi.

Xullas, Urfon Otajon, mening nazarimda, o‘zining bu tarixiy mavzudagi hikoyalari bilan o‘tmish hayotimizning yangi sahifalarni ochganday” [1: 11-14] deya xulosalagan.

Darhaqiqat, bu asarlar har biri ajoyib iqtidorning turli qirralarini ochib beruvchi beqiyos boylik bo‘lib, xalqimizga, o‘sib kelayotgan yosh avlodga salmoqli ma‘naviy meros bo‘lib qoladi. Yaxshidan bog‘qoladi deganlariday Urfon Otajondan ham xazon bo‘lmas bog‘- “Dilkusho bog‘lar “qoldi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Adabiyotshunos-Urfon Otajon. 2018. Talqin, taqriz va xotiralar. -Toshkent: Adabiyot uchqunlari.
2. Urfon Otajon. 2007. Dilkusho bog‘lar. -Toshkent: Yangi asr avlodi.